

**RESEARCH RESULTS OF STUDYING THE ACTIVITY OF "BARKAMOL AVLOD"  
CHILDREN'S SCHOOLS (REPUBLIC OF UZBEKISTAN)**

**Badalova Maqsuda Umarovna**

*A.Avloniy nomidagi MTI BTMMO' mudiri*

**Xalilov To'liq Zafar o'g'li**

*A.Avloniy nomidagi MTI katta ilmiy xodimi*

**"BARKAMOL AVLOD" BOLALAR MAKTABLARI FAOLIYATINI O'RGANISH  
BO'YICHA TADQIQOT NATIJALARI**

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi texnik ijodkorlik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha «Barkamol avlod» Respublika bolalar markazlari negizida Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktablarini tashkil etish bilan bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning foydali dam olishini tashkil etish, mehnatsevarlikni, kasbga tayyorgarlik, bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi. Bolalarning individual qobiliyatlarini, qiziqishlarini, yanada to'liq aniqlashga va takomillashtirishga asoslangan maktabdan tashqari ta'lim tizimining mohiyati har xil ta'lim fanlari chegarasida badiiy, kommunikativ, sport, dam olish, mehnat va boshqa faoliyatdan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi ta'limning mukammalligini va yaxlitligini ta'minlashdan iboratdir. Respublikada maktabdan tashqari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan takomillashtirish tizimini yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Joriy yilning may-iyun oylarida Respublikamizning Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida "Barkamol avlod" bolalar maktablaridagi mavjud holat hamda muammolarni o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Mazkur tadqiqot ishlarida 46 nafar "Barkamol avlod" bolalar maktabi xodimlari ishtirok etdilar. Quyidagi 1-diagrammada ko'rsatilishicha, respodentlarning 48.9%i xodimlarning maoshini oshirish, 40,4% maktablarda moddiy-texnik bazani yaxshilash, 10.6% i esa maktabda mashg'ulotlarni o'tayotgan uslubchi va pedagoglarga metodik yordamni kuchaytirish lozim, deb fikr bildirganlar va uslubchilarni oyligi 1mln.800ming so'mni, direktorlarni maoshi esa 2mln.so'mni tashkil qilishi, ish suratiga salbiy ta'sir etishini ta'kidlashgan.

**1-rasm**

**Ish faoliyatingizdagi uchrayotgan muammolarni hal etishda qanday munosib yechimlar bor deb o'ylaysiz?**



Shuningdek, yana bir masalaga e'tibor qaratsak, ya'ni ayrim hollarda "Barkamol avlod" maktablarida o'quvchilar mashg'ulotlarga qatnashmay qo'ygan hollari mavjud ekan. Bu savolga javob topish uchun quyidagi so'rovnomani o'tqazdik. **2- rasmga** e'tibor qarating.

**2-rasm**


**To'garaklarga bolalarning uzoq muddat qatnashmasligiga nimalar sabab bo'lmoqda deb o'ylaysiz?**



Respodentlar "Barkamol avlod" maktablarida tashkil etilgan to'garaklarga o'quvchilarning qatnashmasligining asosiy sababi sifatida BA maktablarining moddiy-texnik bazasini yetishmasligini va shuningdek, mashg'ulotlarda kerak bo'ladigan xom-ashyolar ham kechikib kelayotganligini, sabab qilib ko'rsatganlar.

**3-rasm**

**Maktablarga bolalarni ko'proq jalb etish uchun qanday to'garaklarni ochish kerak deb o'ylaysiz?**



Yuqoridagi 3-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda "Barkamol avlod" bolalar maktablarida asosiy talab, chet tillarini o'rganishga, dasturlash to'garaklari va robototexnika to'garaklariga qaratilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda yosh avlodni qiziqishlari, ya'ni talablari asosida o'z dasturlarimizni tuzishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotda maktabdan tashqari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etuvchi o'nlab kamchiliklar aniqlab ko'rsatildi. Ularning qariyb 61% i moddiy ta'minotga bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalardan iborat. Bu borada "Barkamol avlod" maktablari direktorlari o'z rahbarlik mahoratlarini ishga solib, mahalliy va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda muammoni yechishni amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim. Tizimda muammolar ko'p ammo biz, ta'lim sifatiga to'g'ridan -to'g'ri ta'sir etadigan asosiy omillardan biri bo'lgan o'quv jarayonlarining holati bo'yicha quyidagi masalalar yechimiga e'tibor qaratish, lozim deb topdik.

✓ Hozirgi kungacha "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbarlari va metodistlari uslubiy qo'llanma va o'quv darsliklari bilan ta'minlanmaganligi sababli tezkor metodik qo'llanmalar yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz;

✓ "Barkamol avlod" bolalar maktablari tajriba almashish va malaka oshirish elektron platforma mavjud bo'lmaganligi sababli "Barkamol avlod" platformasini ishlab chiqish va platformada professional

o'qituvchilarning videodarlarini joylashtirish, va 7 yo'nalishdagi to'garaklar uchun QRkodli uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifa "Barkamol avlod" bolalar maktablarining rivojlanish bosqichini yana bir pog'ona yuqoriga ko'taradi.